

JALOLIDDIN RUMIY ASARLARIDA ILOHIY MUHABBAT FALSAFASI

Ozodaxon Choriyeva,*Toshkent amaliy fanlar universiteti 1-bosqich magistranti**choriyevaazoda2@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Jaloliddin Rumi she'riyatida ilohiy ishqning tasavvufiy va falsafiy mohiyati hamda uning badiiy ifodalanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Rumiyning ishq haqidagi qarashlari orqali inson qalbining poklanishi, ruhiy komillikka erishishi va Yaratuvchiga bo'lgan muhabbatning san'at darajasida yuksak tasviri ochib beriladi. Xususan, "Masnaviy" va boshqa she'riy namunalardagi ramziy obrazlar, majoz va timsollar asosida ilohiy ishqning manbalari va uning inson ma'naviy hayotidagi o'rni ilmiy jihatdan sharhlanadi. Maqola Rumi merosining badiiy-estetik qimmati hamda tasavvuf adabiyotidagi o'rni haqida yangi ilmiy xulosalar beradi.

Kalit so'zlar: Jaloliddin Rumi, tasavvuf, ilohiy ishq, ruhiy komillik, majoz, ramz, badiiy ifoda.

Аннотация. В данной статье анализируется мистическая и философская сущность божественной любви в поэзии Джалалиддина Руми, а также особенности её художественного выражения. Через взгляды Руми на любовь раскрывается высокий художественный уровень изображения очищения человеческой души, достижения духовного совершенства и любви к Создателю. В частности, на основе символических образов, аллегорий и символов в "Маснави" и других поэтических образцах научно разясняются источники божественной любви и её место в духовной жизни человека. Статья даёт новые научные выводы о художественно-эстетической ценности наследия Руми и его роли в суфийской литературе.

Ключевые слова: Джалалиддин Руми, суфизм, божественная любовь, духовное совершенство, аллегория, символ, художественное выражение.

Abstract. This article examines the mystical and philosophical essence of divine love in the poetry of Jalaluddin Rumi, focusing on its artistic expression and symbolic representation. Through Rumi's reflections on love, the processes of spiritual purification, the attainment of inner perfection, and the devotion to the Creator are presented as central themes of his poetic worldview. Special attention is given to the "Masnavi" and other poetic works, where metaphor, symbolism, and allegory are employed to reveal the divine origin of love. The study highlights the spiritual, aesthetic, and cultural significance of Rumi's legacy, providing new scholarly insights into the role of divine love in Sufi literature and human spirituality.

Keywords: Jalaluddin Rumi, Sufism, divine love, spiritual perfection, metaphor, symbolism, artistic expression.

Kirish. Rumi ijodini o'rganar ekanmiz, ishqqa berilgan yana bir yuksak ta'rifga diqqat qilmoqni joiz deb topdik. Mavlononing fikriga ko'ra ishq bu – hayot manbai siz-biz bilgan va yashayotgan bu qisqa va aldanchi, nafsoniy xohish va istaklar tugamaydigan, ammo inson hech qoniqish bilmaydigan hayot emas, abadiy va barcha nafs istaklaridan holi haqiqiy hayotning boshlanishidir. Tafakkur qiladigan insonlar bilishadiki, uzog'i 60-70 yildan iborat bo'lgan qisqa bu hayot doimo adolatli va farovonlikka asoslangan haqiqiy hayot emasligini, aksincha sinovlar uchun beriladigan qisqa bir davr bo'lib, faqat fikr yuritmaydigan qavmlargina uning aldanchi va yaltiroq vasvasasiga uchub, besh kunlik umrini rohat farog'at uchun, yolg'on, riyo va fasod ishlar bilan sarf qiladilar. Zero

Muhammad s.a.v aytganidek, “dunyo mo‘minga zindon, kofirning jannatidir” (Muslim rivoyati).

Adabiyotlar tahlili. Jaloliddin Rumiy ijodi va tasavvufiy tafakkur masalalari Sharq va G‘arb adabiyotshunosligida keng o‘rganilgan ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, A. Hayitmetov hamda N. Mallayev tadqiqotlarida tasavvuf adabiyotining badiiy-estetik tamoyillari, ilohiy ishq konsepsiyasining mumtoz adabiyotdagi talqini yoritilgan. Najmiddin Komilovning tasavvufga oid ilmiy qarashlarida Rumiy ijodidagi ruhiy komillik, fano va ilohiy visol g‘oyalari falsafiy jihatdan izohlangan. Shuningdek, Imom G‘azzoliy hamda Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf asarlarida inson qalbining poklanishi, ilohiy muhabbat va ma‘naviy kamolot masalalari tasavvufiy tafakkur asosida sharhlanib, mazkur maqolaning nazariy-metodologik asosini boyitishga xizmat qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda Jaloliddin Rumiy asarlaridagi ilohiy muhabbat falsafasini yoritishda qiyosiy-tahliliy, hermenevtik hamda lingvopoetik metodlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida “Masnaviy” va boshqa she‘riy namunalar tarkibidagi ramziy obrazlar, majozlar va allegorik timsollar semantik hamda tasavvufiy jihatdan tahlil qilindi. Shuningdek, ishq konsepsiyasining badiiy ifodasi va uning ruhiy-ma‘naviy mazmunini ochishda kontekstual hamda interpretatsion yondashuvlardan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar. Haqiqiy hayot imtihodan boshlanadi, bu hayot esa ana o‘sha ibtido uchun qiyinchlik va mashaqqatlar bilan bo‘lsada sabr va qanoat bilan bosib o‘tiladigan yo‘ldir. Rumiy ham aytmoqdaki, oshiqlar talpinayotgan ishq haqiqiy hayot bo‘lsa, bu hayotda qanday qilib shod va xurram bo‘lish mumkin. Bu tarz mazmunning go‘zal ifodasini biz “Masnaviy” asari 1-jild nay hikoyasining dastlabki baytlarida ko‘rishimiz mumkin.

Tingla naydin, chun hikoyat aylagay,
Ayriliqlardin shikoyat aylagay.
Men qamish erdim, kesib keltirdilar
Nola cheksam, el hama oh urdilar.
Siyna istarmen to‘lo dard-u firoq,
Toki so‘ylay sharhi dard-u ishtiyoq.
Kim yiroq tushsa, yo‘qotsa aslini,
Boz izlar ro‘zgori vaslini.

Baytlar mazmunidan kelib chiqqan holda nayga oshiq obrazidagi majoziy obraz deb qarajak, shoir nayni tinglasak, u go‘yo bizga o‘z ayriliqlari haqida shikoyat qilayotgandek nola qilishi haqida yozadi. Asar uchun bejizga nay obrazi tanlanmagan. Ma‘lumki, nay ko‘plab cholg‘u asboblari orasida o‘zining mungli, dardli, qalblarning eng chuqur yerlariga borib yetuvchi hasrat to‘la ohanglar taratadi. Ayriliqlardan nola qiluvchi bir obraz uchun aynan nay ayni muddao. Keyingi baytlarda esa bevosita nay tilidan aytilgan,

munqli shikoyat sabablarini ko'rishimiz mumkin. Nay o'zining dastlab bir qamish bo'lganligini, uni o'zi oid bo'lgan yer va o'zi kabi qamishlar orasidan kesib olib kelishganini shu boisdan ham shunday dardli kuy taratishini va bu shikoyatning ta'siridan el – insonlar ko'zlariga yosh olishlarini ta'kidlaydi. Keyingi baytda nay o'zining bu munqli shikoyatlari orqali nima istashi, unga nima kerakligi haqida ma'lumot berib, men dard va firoqqa (uning o'zi kabi dard va ayriliqqa) to'la qalb istashini, toki unga dard va ishtiyoqini so'ylay olsin. Qo'lidan ayrilgan bir insonning jismidagi og'riqni-yu, qalbidagi iztirobni ikki qo'li soppa-sog'lom bir inson hech bir zamon his qila olmaydi, uning mashaqqatlariga faqatgina u kabi qo'lidan ajragan insongina haqiqiy hamdard bo'lishi mumkin bo'lganidek naydan chiqayotgan dardni, ayriliq azobining navosini anglamoq uchun ayriliq dardi mashaqqatidan bohabar tinglovchi kerak nayga. Ruh o'ziga o'xshash ruhga talpingani kabi nay ham ya'ni oshiqlar ham o'zlari kabi ishq mohiyatini anglab unga qarab talpinayotgan insonlar davrasida, suhbatida bo'lishni xohlaydi, shunga intiladi.

Rumiy nazarida, nayning nidosi – ruhning nidosidir. Inson qalbidagi tug'iladigan iztirob, sog'inch va ishq nolasining ildizi asl vatanni, ya'ni Alloh huzurini qo'msashdir. Shu bois u **“Kim yiroq tushsa, yo'qotsa aslini, Boz izlar ro'zgori vaslini”** deya ruhning asl manba – ilohiy visolni izlashga majbur ekanini ta'kidlaydi.

Bu baytlar orqali Rumiy tasavvufiy ishqni ikki qirrada ochib beradi: bir tomondan, insonning dunyoda cheksiz ayriliq va iztirobni his etishi, ikkinchi tomondan esa, ana shu iztirob orqali ruhning ilohiy manbaga qaytish istagini anglash. Demak, ishq tasavvufda ayriliq nidosidan boshlanadi va komillikka eltuvchi ruhiy safarning asosiy kuchiga aylanadi.

Navbatdagi bayt mazmunida nay agar kimda kim aslini, o'zi oid bo'lgan muhitni, hududni yo'qotsa yana o'sha ro'zg'orga – yashash tarziga qarab intilaveradi deydi. Baytlar avvalida nayni qamishlar orasidan kesib olib kelishganini va bu ayriliq sababidan undan munqli kuy taralishini aytgandik aslida bu tamomila majozdir. Nayni haqiqiy oshiq deb qarasaq uni dardini his qilib yig'laganlar u kabi ayriliq ahlidirlar. Ya'ni shikoyat qilgan ham shikoyatning mohiyatini anglab yig'lagan ham ishq ahlidirlar. Ular o'zlarining Haq huzuridan ayrilib bu yolg'on dunyoga kelishlarini bir ayriliq, haqiqiy hayotdan, ishqdan, visoldan judolik deb bilishadi. Shu sabab mudom mahzunlik ila hamroh bo'lib biri hasrat ila bu ayriliq iztirobi haqida gapirsa boshqalari buning mashaqqatidan oh urib yig'laydilar, umrini yana ilohiy haqiqatga, Oliy Visolga erishish umidida sabr va qanoat bilan ibodat va mashaqqat bilan o'tkazadilar. Ularning mahzunligi qadardan norizolikdan emas, balkim Haqiqatdan judolik va unga qayta qovushish mashaqqati sabab imkonsizlikdandir. Agar o'zingiz istamagan xolda barcha go'zalliklarga ega bir qasrdan tashqari chiqib qolsangiz va unga qayta kirish uchun ma'lum mashaqqatlar bilan yuzlashsangiz bu mashaqqatlar davomida qalbingizga quvonch va lazzatni yo'lata olasizmi, albatta, bu imkonsiz. Ishq ahlining holati ham shu kabi mahzunlikdir. Rumiyning nay tilidan aytgan yuqoridagi

baytida shu mazmuni tushunish mumkin. Aslini yo‘qotsa agar kimdir o‘sha ro‘zg‘orni izlayveradi derkan, bu izlash davomida nay kabi mahzun va mungli kuy taratadi. Va o‘zi kabi ayriliqdan o‘rtanib, asliyatini izlayotgan insonlar davrasi uchungina anglashimli bo‘ladi.

Rumiy ta‘limotiga ko‘ra har bir sog‘lom, fikr yurita oladigan aql egasi bo‘lgan inson yuragi albatta ishq azobini totmog‘ darkor, zero tafakkur qilgan angalaydi, anglagan sevadi, oshiq bo‘ladi oshiq bo‘lmasdan iloj yo‘q. Sevmasa demak anglamaydi, anglamayaptimi demak u yo telba yoki jonsiz murda, bu haqida Rumiy “Ishq azobini totmagan yurak, yo telbaning yuragidir, yoki murdaning” deb yozadi.

Mavlono badiiyatidagi ishq tushunchasining ko‘lamdorligiga to‘laroq nazar tashlamoq uchun uning mashur asari “Masnaviy”dagi ishq obrazlari va allegoriyalari tahliliga yuzlanishni lozim deb topdik. “Masnaviy Ma’naviy” — Mavlono Jaloliddin Muhammad ibn Bahouddin Valad Balxiy Rumiy tomonidan yozilgan ulug‘ asarlardan biri bo‘lib, bu doston nafaqat Sharq, balki G‘arb adabiyotida ham eng yuksak qiymatga ega bo‘lgan durdona asarlardan biri sifatida e‘tirof etiladi. Asar oltita yirik jilddan tashkil topgan bo‘lib, jami 26 840 bayt (ya‘ni 51 370 misra) ni o‘z ichiga oladi. U o‘z mazmuni jihatidan Qur‘onning 70 foiz ma‘nolarini badiiy tilda sharhlab beradi. Bundan tashqari, unda 690 ta hadisga izoh berilgan hamda 270 dan ortiq hikoya turli ruhiy-ma‘naviy mavzularda yoritilgan.

Masnaviyning birinchi jild birinchi hikoyasidagi Shoh va Kanizak obrazlarini allegorik obraz deyish mumkin. Asardagi bu obrazlar majoziy bo‘lib Rumiy hastalanib qolgan kanizagi uchun tabib yollab, uning hastaligi ruh bilan bog‘liqligini bilgandan so‘ng ham, uning shifosi uchun lutf kasb etgan podshoh, tanadagi emas ruhdagi hastalikni aniqlovchi usta tabib va qalbidagi muhabbat alangasi qarshisida jismi ojiz qolgan kanizak orqali ishq va oshiqlikka oid go‘zal sifatlarni ifoda etmoqda. Hikoyatda shoh – ilohiy rahm-shafqat timsoli bo‘lib, bu marhamat Sohibi uchun insonning ijtimoiy mavqeyi muhim emas buni hatto kanizakka ham lutf ko‘rsatib tabiblar jalb qilganidan, Samarqandga odam yuborib zargarni topib keltirganidan anglash mumkin. Kanizak esa inson ruhining majoziy timsoli bo‘lib, ruh og‘ringanda jismda ham mador qolmasligi g‘oyat ta‘sirchan ifoda etilgan. Kanizakning hastalik sababini aniqlashga muvofiq bo‘lgan mohir tabib esa “murshid”, “komil pir” ning badiiy, majoziy timsoli bo‘lib, dastlabki bosqichlardagi o‘z holidagi hasrat va qalbidagi g‘urbat sabablarini o‘zi ham bilmagan oshiqlar “hastaligiga” faqatgina bu bosqichlarni bosib o‘tib komillikka erishgan murshidlargina tashxis qo‘yib, shifo topishlari mumkin. Masnaviyning yana bir mashhur ishqiy obrazlar qatnashgan hikoyati “Layli va Majnun” bo‘lib bu an‘naviy obrazlar tasavvuf ijodkorlarining aksarida uchraydigan, lekin barchasida o‘ziga xos talqin va ifoda go‘zalligiga ega, ming marta o‘qiganda ham o‘quvchini o‘zidan bezdirmaydigan va qayta-qayta qiziqish uyg‘otadigan mavzulardan hisoblanadi. Rumiya ko‘ra ma‘joziy ishq

bandani Ilohiy ishqqa boshlovchi yo‘ldir, haqiqiy ishq eshiklarini ochuvchi kalitdir. “Layli va Majnun” hikoyatida ham boshqalardan ajralib turmaydigan Layliga telbalarcha oshiq bo‘lgan Majnun haqida gap ketar ekan, shoh Layliga “senda boshqalardan ustunroq bir hislat ko‘rmadim, Majnun seni nimanga oshiq o‘ldiki”, deb so‘raganda Layli “sen Majnun emassanki, menda Majnun ko‘rganini sening ko‘zlaring ko‘rishga o‘zidir” deb javob qaytaradi. Ya‘ni biriga oshiq bo‘lish unda hamma ko‘rishi mumkin bo‘lgan hislatlarga emas, oshiqdan boshqa ko‘ra olmaydigan bir hislatga muhtalo bo‘lish demakdir. Layli visoliga yeta olmagan Majnun telbaga aylanada, sahrolarda devonavor yashaydi, zero qalbimni jizg‘anak qilayotgan ishq otashi oldida sahroning hovuri hech gap emas degandek. Biroq Layli ko‘plab mashaqqatlardan so‘ng Majnun yoniga kelganida uni ortiq Layliga ham uning muhabbatiga ham ehtiyoji yo‘q edu, chunki Majnundagi majoziy ishqning haddan oshgani haqiqiy ishq chegaralaridan hatlab o‘tgan va endi uning yagona ilinji Ilohiy haqiqat va Oliy visol edi. Bu hikoyatda Majnun obrazi majoziy ishqdan ishq yo‘liga kirib fano olamiga kirgan va ilohiy ishq sari intilayotgan, komillik sari ketayotgan allegorik obrazdir.

Asardagi “Sozand chol” hikoyatidagi chol obrazida ham ishq ahli sifatlarini ko‘rishimiz mumkin. Chol yosh va navquron vaqtlarida uning iste‘dodi hammaga ma‘qul va manzur edi uning kuy-navolarini barcha sevib tinglar, chol ham bu shuhratga berilib umrini faqat insonlar olqishi uchun sarf etganini payqamay qolgan edi. Ammo u keksayib qo‘llari cholg‘u chalishga, ovozi kuylashga o‘zlik qilib qolganda aslida hech kim uchun qiymatga ega emasligini anglab yetadi. Bu orqali Rumi bugun atrofingda parvona bo‘layotgan o‘tginchi insonlar gavjumligiga aldanib, o‘zinga ortiqcha ishonib yuborma bari o‘tginchi, barchasi ketguvchi demoqchidek. Bularni anglab, pushaymonlik alamini chekkan chol mozorga borib, chun qalbdan tavba qiladi va umrida ilk bor uni yaratgan Alloh uchun kuy chalishini aytib kuy chaladi. Umar r.a orqali unga o‘z marhamatini yetkazgan Robbisining unga ko‘rsatgan shafqatidan ta‘sirlanib yum-yum ko‘z yosh to‘kadi. “Buncha yil zalolat Ichida yashab bir bora Senga yuzlanmadim ammo Sen bir bora tavba qilib O‘zinga yuzlanganim uchun menga marhamat etding”- deya bag‘rini chok qiladi. Sozini tashlab umrini Haq yo‘liga buradi. Robbimiz o‘ta afv etuvchi va marhamat sohibidir, yetarki chinakkam tavba bilan unga yuzlana olsak, afvidan noumid bo‘lmasak bo‘ldi. Hikoyatda chol dunyodan yuz burib ishq yo‘liga kirgan fano olamiga yuzlangan oshiq timsoli bo‘lib. Haq O‘z ishqini O‘zi istagan qalbgga joylaydi, oshiqlik ma‘lum yosh, daraja, kasb tanlamaydi Alloh bandasining qalbiga boqadi.

Asardan joy olgan To‘ti haqidagi hikoyat ham juda chiroyli majozlar bilan ifoda etilgan bo‘lib, g‘oyat ravon va tushunilishi osson bo‘lgan hikoyatlardandir. Asarda bir savdogar bo‘lgan inson Hindistonga safar qilar ekan barcha yaqinlaridan u yerdan nima tilashini so‘raydi. Navbat to‘tiga yetganda u jinsdoshlarini topib ularga o‘zi va ahvoli haqida aytib berishini so‘raydi. Shunday ham bo‘ladi ammo bir to‘ti bu gaplarga chiday

olmay o'rtanib, to'lg'onib shu yerda o'ladi. To'ti sohibi bo'lgan voqea haqida katta afsus va nadomat bilan o'z to'tisini xabardor qilganda, to'tisi ham titrab-to'lg'onib qafasda jon beradi. Sohibi juda mahzun bo'ladi va uni qafasdan olib derazaga qo'yadi. Shu onda to'ti uchib o'zini bu zindon hayotidan ozod qiladi. Sohibi hayrat bilian bu holning boisini so'raganda u "aslida men sen orqali yaqinlarimdan o'z mahbusligimga chora, yordam so'ragan edim, ular esa menga shu yo'lni, faqatgina o'lib ozodlikka yetishishim mumkinligini aytishdi, men o'ldim va qafasdan ozod bo'ldim" deb javob qilibdi. Hikoyat boshdan oyoq majoziy mazmunga yo'g'rilgan. Asada to'ti badan zindoniga mahbus bo'lgan ruh timsolidir. U yerdan qutulishning yo'li esa o'lmoqdir. Bu o'rinda ta'riflangan o'lim haqiqiy emas majoziy bo'lib, tasavvufda asos sifatida olingan foniylikka yetishish, dunyo vasvasalaridan, orzu havas va ehtiroslar asoratidan halos bo'lmoqdir. Badan va moddiy dunyo aziyatlari zindonidan ozod bo'lib, ruhiy-ma'naviy hurriyatga qovushmoqlik g'oyasi ushbu hikoyatning ruhini tashkil etadi.

Xulosa. Jaloliddin Rumi ijodi tasavvufiy tafakkurning eng yuksak namunalaridan biridir. Uning she'riyatida ilohiy ishq — inson ruhiy kamolotining asosi, yaratuvchiga yaqinlashishning yagona yo'li sifatida talqin etiladi. Rumiyning "Masnaviy" hamda boshqa she'riy asarlarida ishq obrazining badiiy ifodasi, ramziy timsollar va majozlar orqali ochilishi nafaqat tasavvuf adabiyotining estetik ko'lamini kengaytiradi, balki umuminsoniy qadriyatlarni ham yuksaltiradi. Demak, Rumi she'riyatida ilohiy ishqning badiiy ifodasi inson qalbini poklash, ruhiyatni tarbiyalash va ma'naviyatni boyitishda muhim o'rin tutadi. Shu bois Rumi merosini o'rganish zamonaviy adabiyotshunoslik va tasavvuf falsafasida dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hayitmetov, A. Alisher Navoiy va tasavvuf. – Toshkent: Fan, 1963.
2. Mallaev, N. Alisher Navoiy. – Toshkent: G'afur G'ulom, 1972.
3. "Tafsiri Hilol" Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf «HILOL NASHR» Nashriyot-matbaasi 2024 (2007–2023).
4. Hakima Salomova "Shams Tabriziy va Jaloliddin Rumi." Imom Buxoriy saboqlari, 1-son, 2021.
5. Imom G'azzoliy. Ihyoyu ulumiddin. – Toshkent: Qamar media, 2021.
6. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. Toshkent: "Movarounnahr" "O'zbekiston" 2009. – B.9